

TIL LEKSIKASIDAGI BO'SHLIQLAR

Abdumannon Majidovich HASANOV

Katta o'qituvchi, PhD

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ПРОБЕЛЫ В СЛОВАРНОМ СОСТАВЕ

Абдуманнон Маджидович ХАСАНОВ

PhD, Старший преподаватель

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

Ташкент, Узбекистан

LEXICAL GAPS IN VOCABULARY

Abdumannon Majidovich KHASANOV

PhD, Senior Teacher

Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan abdumannonhasanov3137@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 81'373:811.512.133

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Hasanov A. M. Til leksikasidagi bo'shliqlar//
O'zbekistonda xorijiy tillar.— 2022. — № 2
(43). — B. 29-38.

<https://doi.org/10.36078/1652596194>

Received: February 15, 2021

Accepted: April 17, 2022

Published: April 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot orqali til leksikasidagi bo'shliqlarni o'rganishning amaliy ahamiyati ko'rsatib berildi. Ushbu tadqiqot tafakkurda mavjud bo'lgan, ammo tilda o'z ifodasiga ega bo'lmagan tushunchalarni nomlash borasida muayyan masalalarni kun tartibiga qo'yadi. Aslida, tilda nomlanmagan ko'pgina tushunchalar til egalarining irodasiga bog'liq ravishda nomlanmasdan «yashayveradi». Bunday tushunchalarni muayyan leksik-semantik guruhlarni tahlil qilishda sezish mumkin. Til leksikasi sistema sifatida qaralar ekan, uning har bir birligiga muayyan leksik munosabatdagi leksemaning bo'lishi taqozo qilinadi. Bu esa biror leksemaga paradigmatic munosabatda bo'lgan so'zlarni izlash asosida ko'plab leksik bo'shliqlarni topishga imkon beradi. Til leksikasini boshqa tilga qiyoslamasdan undagi «bo'sh katakcha»larni aniqlash, ularni to'ldirish — til taraqqiyoti uchun zarur. Zero, nomlanmagan tushunchalar tilda o'z ifodachisiga ega bo'lishga intiladi. Ushbu maqolada leksik bo'shliqlarning paydo bo'lishi va tilda muqarrar mavjud bo'lishi kognitiv jihatdan asoslangan. Ularning mavjudligi tafakkurning tildan biroz ilg'or rivojlanishiga bog'liqligi qayd etilgan. Tafakkurda shakllanadigan tushunchalarning nomlanish jarayonlari lingvistik ehtiyojlarga mutanosibliigi ko'rsatilgan. Nominatsiya jarayonida nomlanayotgan tushunchaning nutqiy ahamiyatligini baholashga e'tibor qaratish lozimligi maqolada o'z aksini topgan. Mazkur nazariy qarashlar til leksikasini to'ldirish va takomillashtirish bilan bog'liq ishlarga xizmat qiladi. Shuningdek, til tizimidagi «bo'sh katakchalar»ni obyektiv baholash va tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Kalit so'zlar: leksika; leksik bo'shliq; leksik tizim; bo'shliqni aniqlash va to'ldirish; nomsiz tushuncha; nominatsiya.

Аннотация. Данное исследование демонстрирует практическую важность изучения пробелов в лексике языка. В данном исследовании поднимаются специфические вопросы называния понятий, существующих в мышлении, но не имеющих собственного выражения в языке. На самом деле многие понятия, не имеющие имени в языке, “живут” без имени, в зависимости от воли владельцев языка. Такие понятия можно почувствовать при анализе конкретных лексико-семантических групп. Поскольку лексика языка рассматривается как система, каждая ее единица обязана иметь лексему с определенным лексическим отношением. Это позволяет находить множество лексических пробелов на основе поиска слов, имеющих парадигматическое отношение к лексеме. Для развития языка необходимо выявить “пустые ячейки” в лексиконе языка, не сравнивая его с другим языком. Ноль безымянных понятий, как правило, имеет собственное выражение в языке. Данная статья когнитивно основана на появлении лексических пробелов и неизбежном наличии языка. Было замечено, что их существование зависит от развития мышления, несколько более развитого, чем язык. Показано, что процессы наименования образующихся в мышлении понятий соразмерны языковым потребностям. В процессе номинации следует обратить внимание на оценку словесной значимости именуемого понятия. Эти теоретические взгляды служат для дополнения и улучшения словарного запаса языка. Это также позволяет объективно оценивать и анализировать “пустые ячейки” в языковой системе.

Ключевые слова: лексика; лексическое пробел; лексическая система; выявление и заполнение лексическое пробел; безымянный концепт; номинация.

Abstract. This study demonstrates the practical importance of studying gaps in language vocabulary. This study raises specific issues of naming concepts that exist in thinking but do not have their expression in the language. There are a lot of concepts that “live” without a name, depending on the will of the language bearers. Such concepts can be observed in the analysis of specific lexico-semantic groups. Since a language’s vocabulary is considered a system, each of its units must have a lexeme with a particular linguistic relation. This allows finding a lot of lexical gaps based on the search for words that have a paradigmatic relationship to the lexeme. For the development of the language, it is necessary to identify “empty cells” in the lexicon of the language without comparing it with another language. Zero unnamed concepts, as a rule, have their expression in the language. This article is cognitively based on the appearance of lexical gaps and the inevitable presence of language. It has been observed that their existence depends on development of thought somewhat more advanced than language. It is shown that the processes of naming concepts formed through thinking are commensurate with language needs. In the nomination process, attention should be paid to assessing the verbal significance of the named concept. These theoretical views serve to supplement and improve the vocabulary of the language. It also allows to objectively evaluate and analyze “blank cells” in the language system.

Keywords: vocabulary; lexical gaps; lexical system; detection and filling of lexical gaps; nameless concept; nomination.

Kirish. Tushuncha va uning xususiyatlarini o'rganishda mantiq va tilshunoslik fanlarining ahamiyati juda katta. Xususan, tilshunoslikda tushuncha va so'z, ularning o'zaro munosabati haqida qadimgi davrdanoq bahs-munozaralar, fikrlar, qarashlar bildirilgan. Biroq tilshunoslikda tushuncha(lar)ning nomlangan tur(lar)ini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilgani holda nomlanmagan tushunchalar va ularni nomlash masalalariga u qadar katta e'tibor qaratilmaydi. Darvoqe, nomlanmagan tushunchalar faqat tafakkurda yashaydi va uni mantiq fani o'rganishi lozim, deb bu masaladan cheklanish mumkin. Biroq tushunchaning nomlanishi (nominatsiya) jarayonlari va unda amal qiladigan qonuniyatlarni o'rganishni mantiq fani zimmasiga yuklash mumkin emas.

Dunyo tilshunosligida nomlanmagan tushunchalarni o'rganish, ularning mavjudligini tan olish (va ko'rsatish), nomlash borasida ayrim mulohazalar mavjud. Xususan, F. Gumbolt, F. de Sossyur qarashlarida til leksikasidagi «bo'sh katakchalar» (8, 300–304), leksik tizimdagi ba'zi paradigmalarda ikkinchi qutbning mavjud emasligi (18, 133–134) haqida jiddiy munozaralar yuritilgan. O'zbek olimlaridan M.Mirtojievning ta'kidlashicha, «ayrim hollarda ma'no kishilar ongida paydo bo'lgani holda ifodalash zarurati yo'qligi uchun unga shakl tanlanmasligi va so'z holda shakllanmasligi kuzatiladi» (15, 26). Boshqacha aytganda, leksik birliklar mavjudligi xalq ongida muayyan konseptning mavjudligini ko'rsatadi, ammo tushunchaning mavjudligi uchun lingvistik birlikning mavjud bo'lishi shart emas. Ong va tafakkurning cheksiz imkoniyatlari tilda ancha sekin akslanadi. Til birliklarining intensiv imkoniyatlari sabab ongda har bir tushuncha va fikrni ifodalash mumkin. Biroq ongda shakllanadigan va ko'p bora murojaat qilinuvchi ko'pgina tushunchalar tilda doimiy va mustaqil ifodachisiga ega bo'lishga intiladi.

T.A.Degtereva ta'kidlaganidek, «agar kishilik tafakkurida yuzaga keladigan har qanday tushunchani alohida-alohida tovush kompleksi bilan ifodalashga muhtojlik sezilganda tilning lug'at tarkibi shu qadar ko'p so'zlardan iborat bo'lib qolar ediki, natijada til egalarining tilni egallab olishlari nihoyatda qiyinlashib qolardi, til shu qadar tez o'sib ketardiki, jamiyat hayotida yo'l qo'yib bo'lmaydigan muomalaviy qiyinlik tug'ilardi» (9, 3–4). Shu sabab ham ongda paydo bo'ladigan barcha tushunchalarni emas, eng zarurlarini tahlil qilish, (agar nomlanmagan bo'lsa) nomlash tilshunoslikning vazifalaridan biridir. Ayni shu vazifalarning ijrosi uchun til leksikasini tizimli tahlil qilish, undagi leksik bo'shliqlarni aniqlash va to'ldirish katta ijtimoiy ahamiyatga ega.

Asosiy qism. O'zbek tilining izohli lug'atida bo'shliq so'zi quyidagicha tavsiflanadi: 1. Ma'lum chegaralar bilan o'ralgan bo'sh joy; havoli joy. 2. Cheksiz olam, fazo, osmon; cheki yo'q bo'sh joy. 3. Bo'sh yotgan yer, joy. 4. fiz. Havosiz joy, vakuum. (22, 424–425). Mazkur izohdagi to'ng'ich semema sifatida «ma'lum chegaralar bilan o'ralgan bo'sh joy» tushunchasi o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun tushunarli. Shu tushuncha asosida shakllanuvchi leksik bo'shliq tushunchasi ham muayyan sistemadagi bo'sh o'rinni atashga xizmat qiladi.

Leksik bo'shliq (keyingi o'rinlarda – LB) – leksik tizimdagi muayyan yacheykaga mos keladigan va uning to'kisligiga xizmat qiladigan nomemasiz tushuncha. Ya'ni leksik tizimdagi boshqa birliklar bilan o'zaro munosabatdagi (ma'lum chegaralar bilan o'ralgan) nomsiz (bo'sh) tushuncha (joy, o'rin) leksik bo'shliq hisoblanadi.

Leksik bo'shliq til leksikasini sistema sifatida o'rganishda yaqqol kuzatiladi. Masalan, leksik tizimdagi antonimik munosabatlarni hosil qiluvchi rozi – betaraf – qarshi so'zlarida o'zaro qarama-qarshi tushunchalar va ular orasidagi mantiqiy markaz (betaraf tushunchasi)ni ifodalovchi so'zlar o'zbek tili leksikasida mavjud, ammo *yig'lamoq – kulmoq* antonimlari orasidagi mantiqiy markaz (*yig'lamasdan, kulmasdan* turishni ifodalochi tushuncha) maxsus nomga ega emas. Bu kabi LBlar til leksikasida juda ko'p. Mazkur LBlar nutqda so'z birikmasi, gap kabilar bilan to'ldiriladi. Biroq tez-tez va ko'p bora murojaat qilinuvchi bunday tushunchalarning nomlanishi til ega (iste'molchi)lari uchun muayyan qulayliklar yaratadi. Xususan, tegishli tushunchaning bir necha so'z bilan ifodalash (yoki izohlab tushuntirish) majburiyatidan xalos qiladi. Bu esa nutqiy tejamkorlikka, aniqlikka va lo'ndalikka xizmat qiladi.

Til egalariga ma'lum bo'lgan, ammo alohida leksema bilan nomlanmagan tushuncha (lakuna), odatda, ikki til leksikasini qiyoslashda yaqqol seziladi. Umuman, bir tilda (uni boshqa til bilan qiyoslamasdan) ham leksik bo'shliqlarni aniqlash mumkin. Masalan, o'zbek tilida transport vositalarining harakatini sekinlashtirish (piyodalarning xavfsizligini ta'minlash) uchun yo'lga ko'ndalang o'rnatiladigan sun'iy bo'rtiq o'z nomiga ega emas. Yoki qo'lning kaftdan tirsakkacha bo'lgan qismi bilak deb nomlangani holda, tirsakdan yelkagacha bo'lgan qismi alohida so'z bilan nomlanmagan. Bunday leksik bo'shliqlar tilning diaxron va sinxron leksikasini qiyoslashda ham kuzatilishi mumkin: masalan, eski o'zbek tilida «cho'chqa bolasi» *cho'rpa* (2, 485) nomi bilan atalgan (bugungi kunda ayrim shevalarda *chulpak* (10, 157) tarzida uchraydi), biroq hozirgi o'zbek adabiy tilida bu tushunchani nomlovchi leksema mavjud emas.

Tilshunoslikda leksik bo'shliqni unga yondosh hodisalardan farqlash va tavsiflash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, rus tilshunosligida bu borada alohida tadqiqot maktabi yuzaga kelgan. Bu ilmiy maktabda leksik bo'shliqni ikki til muqoyasasida o'rganilishi yetakchilik qilsa-da, bu hodisaning til taraqqiyotidagi rivojlantiruvchi omillardan biri ekanligiga so'nggi paytlarda alohida e'tibor qaratilmoqda (1, 7). Ayniqsa, I.A.Sternin va uning izdoshlari tomonidan shakllantirilgan lakunologiya yo'nalishida muayyan til leksik sathida bo'shliqning voqelanishi hamda ularni to'ldirish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Bu borada G.Bikova, O.Ladiso, V.Ryabov, T.Larina kabi tadqiqotchilarning ishlari diqqatga sazovor (5; 11; 12; 17). Xususan, leksik bo'shliqlarni tizimli tahlil asosida o'rgangan G.Bikova uning turlari, aniqlanish usullari, yuzaga kelish sabablari, bartaraf etish yo'llarini rus tili materiallari asosida keng aspektda tadqiq etgan.

Bikovaning qayd etishicha, leksik bo'shliq «muayyan tovush qobig'iga ega bo'lmagan va hozirda bir necha so'z bilan ifodalanayotgan, ertami-kechmi leksik reallashish uchun «tramlinda turgan», yangi so'z sifatida obyektlashadigan tushuncha» (5, 260). Olimaning fikricha, har qanday nomsiz tushuncha leksik bo'shliq emas, balki leksik reallashish arafasida turgan semema leksik bo'shliqdir. Muloqot jarayonida ko'p murojaat etiluvchi tushunchani leksik reallashtirish ehtiyoji seziladi (agar u nomlanmagan bo'lsa). Zero, lisoniy-nutqiy ehtiyoj til birliklarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ayrim hollarda norelevant (zarur darajada ahamiyatli bo'lmagan) tushunchalarning nomlari nutqda faol qo'llanmasligi oqibatida nofaol qatlamga o'tib qolishi mazkur qarashning o'rinli ekanligini ko'rsatadi.

Leksik bo'shliqning muhim xususiyati uning konsept (tushuncha) sifatida til egalari ongida mavjudligidir. Mazkur tushuncha o'z ifodachisiga ega bo'lmagan vaqtda so'z birikmalari (yoki izoh va tushuntirishlar) bilan ifodalanadi. Bu kabi ifodalashlar nutq jarayoni uchungina amal qiladi, nutq jarayoni yakunlangach, mazkur ifoda parchalanib ketadi va leksik birlik maqomini saqlay olmaydi.

Shuni qayd etish lozimki, har qanday tushunchani tilda so'z birikmasi (yoki gap tarzidagi izoh va tushuntirish) bilan ifodalash mumkin. Tilning bu intensiv xususiyati tilda leksemalar ko'payib ketishini cheklab turuvchi omil bo'lish bilan birga leksik tizimda muayyan bo'shliqlarning shakllanishini ham yuzaga keltiradi. Muayyan tushunchaning tilda leksemalashishi shu tushunchani nomlashga bo'lgan lisoniy-nutqiy ehtiyojga bog'liq. Odatda, muayyan tushunchaning relevant (ahamiyatli)ligi va nomlash zarurati shu tushunchaning boshqa til(lar)da nomlangan-nomlanmaganligini o'rganish orqali xolis baholanishi mumkin. Leksik bo'shliqlarning bugungi kunda keng o'rganilayotgani ham mazkur jihatlariga aloqador.

Leksik bo'shliqlarning paydo bo'lishida nutqiy zaruratning anglab yetilishi ham juda ahamiyatli. Ko'pgina hollarda tushuncha kishilar ongida paydo bo'lsa-da, muayyan darajada ifodalash zarurati yo'qligi uchun unga nom tanlanmasligi kuzatiladi. Boshqacha aytganda, leksik birliklar mavjudligi xalq ongida muayyan konseptning mavjudligini ko'rsatadi, ammo tushunchaning mavjudligi uchun lingvistik birlikning mavjud bo'lishi shart emas (7, 22). O'zbek milliy madaniyatida yoshi ulug' kishilarning gapini qaytarmaslik (gapini ikki qilmaslik, e'tiroz bildirmaslik) konsepti mavjud. Biroq uni nomlovchi leksema yo'q, shu bois uni izoh yoki so'z birikmasi bilan tushuntirishga to'g'ri keladi. Mazkur holat tilda konseptga mos leksemaning doim ham mavjud bo'lavermasligini ko'rsatadi. «Tabiiy til obyektiv olamning va bilishning turli xil sohalariga tegishli bo'lgan predmetlar, hodisalar hamda ularning xossalari va munosabatlarini qamrab olish va ifoda qilishdek katta imkoniyatga ega. U semantik jihatdan yopiq sistema hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tabiiy til boshqa tillarga murojaat qilmagan holda, mustaqil ravishda o'zini qurishi va ifoda qilishi mumkin» (19, 33). Ayni shu xususiyatlar sabab eng kam leksemaga ega bo'lgan til ham o'z egalari nazdida yetarlicha ifoda imkoniyatlariga ega deb baholanadi.

Muayyan leksik tizimdagi bo'shliqlarni aniqlash va tahlil qilishda juda ko'p holatlarni kuzatish mumkin. Biroq ulardan qaysi holatlarda bo'shliqlarni to'ldirish dolzarbligini aniqlashda ikki leksik tizimning muqoyasa qilinishi ancha to'g'ri qaror qabul qilinishini ta'minlaydi. Bu kabi jarayonlarda ham ikki leksik tizimdagi qiyoslanuvchi birliklarni alohida va mushtarak jihatlariga e'tibor qaratish talab qilinadi.

Til leksik tizimidagi bo'shliqlarning paydo bo'lishi inson tafakkurining cheksiz rivojlanib borishi bilan ham bog'liq. Ma'lumki, «tushuncha so'z (nom) orqali ifodalanishi ham, ifodalanmasligi ham mumkin» (4, 94). Shakllanish va ommalashish jarayonida har bir tushuncha o'z ifodachisi bo'lgan leksemaga ega bo'lishga intiladi. Biroq til va tafakkurning nomutanosibligi natijasida yuzaga keluvchi leksik bo'shliqlar barcha tillarga xos immanent hodisadir. Atovchisiz tushunchalar ham ertami-kechmi tildagi o'z ifodachisi — nomga ega bo'ladi. Faqat bu jarayon qancha vaqtda sodir bo'lishini oldindan belgilash mushkul.

Leksik tizimdagi «bo'sh katakchalar»ning hammasini leksik bo'shliq sifatida baholab bo'lmaydi. Xususan, leksik tizimdagi muayyan elementga mos paradigmadosh (juft, «qo'shni»)ning mavjud bo'lishi undagi har bir

elementning shu kabi xususiyatlarga ega bo'lishini taqozo etadi (16, 13). Biroq bu xususiyatlar turli leksemalarda turlicha namoyon bo'ladi. Natijada bir leksemaning muayyan paradigma doirasida mavjud bo'lgan paradigmadoshi o'zga leksemada yo'q bo'lishi mumkin. Mantiq ilmida *illogizm* deb ataluvchi mantiqsiz qutb («paradigmadosh») har qanday leksema uchun, albatta, taqozo etiluvchi jihat emas. Ya'ni mantiqan zarur (va mavjud) bo'lmagan tushuncha nomlanishga (yoki leksik bo'shliq sifatida baholanishga) loyiq emas. Binobarin, «so'z nomlash ehtiyoji ta'sirida paydo bo'lgan tilning nominativ birligi bo'lib, u inson idrokiga sig'adigan narsa, voqea, hodisa yoki ma'lum biror tushunchani ifodalay oladigan tovush va tovushlar umumlashmasi»dir (20, 118). Leksik bo'shliqning obyektlashuvi juda murakkab jarayon bo'lib, unda lisoniy ehtiyoj va imkoniyatlarning uyg'unlashuvi asosida atovchisiz tushuncha nomlanadi. Nominatsiya jarayonida tilning mavjud imkoniyatlari ishga solinadi. Shuning barobarida mazkur tushunchaning ijtimoiy-lisoniy ommalashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Shu jarayonlar orqali leksik bo'shliqlarni bartaraf etishda kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Tilda u yoki bu so'zning paydo bo'lishi zaruriyat va tasodifning o'zaro bog'liqligi asosida sodir bo'ladi (3, 134). Bu jarayonda zaruratning mavqesi bir qadar ustuvor: muloqot jarayonida zarur ifoda uchun izlanayotgan, ammo topilmayotgan (hatto «tilning uchida turgan») so'z (nom) ham kommunikativ maqsad ro'yobiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Garchi bunday tushunchani izoh yoki sharhlar orqali tushuntirish mumkin bo'lsa-da, so'zlovchi uchun ayni o'sha tushunchaga mos til birligining mavjud bo'lishi nutqiy zaruratga aylanadi.

Tafakkurning tinimsiz taraqqiy etishi natijasida shakllanuvchi lisoniy ehtiyoj tilning barcha tushunchalarni nomlash borasidagi imkoniyatlari cheklanganligi natijasida yuzaga keladi. Til egalarining uzluksiz ijtimoiylashuvi, mehnat bilan shug'ullanishlari, tabiat sir-sinoatlarini bilishga intilishlari natijasida tafakkur ham tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Tafakkurda kechadigan in'ikos va anglash, bilimlarni umumlashtirish jarayonlari ongda har bir tushunchaning nomlanishini taqozo etadi. Ayni shu jarayonda ongda kechadigan kognitiv faoliyatni tilda ifodalashga intilish natijasi o'laroq, kommunikatsiya jarayonida lisoniy ehtiyoj aniq seziladi, bu ehtiyoj til va tafakkur birliklarining lakunar munosabatidan shakllanadi.

Til taraqqiyoti mazkur leksik bo'shliqlarning tezroq to'ldirilishini taqozo etadi. Shu bois yangi tushunchalar tezroq nomlanishga muvaffaq bo'ladi. Til egalari nomlash jarayonida yangi tushunchani atashda tilning ichki imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishga intiladi. Zero, yangi tushunchaning jamoa uchun tushunilishi va ommaviylashuvi shu jihatga bog'liq.

Borliq va undagi tushunchalarni idrok va in'ikos etilishida tafakkurning asosiy quroli bo'lgan til muomala, muloqot jarayonida «ongning tarjimoni» sifatida barcha hissiy, aqliy tushunchalarni ifodalay olishda mukammallikka intilaveradi. Tafakkurning rivoji til rivojiga turtki berib turadi va o'z navbatida tilning rivoji ham tafakkurning izchil rivojlanishiga yordam beradi (6, 159). Ammo tan olish kerakki, til garchand taraqqiy etsa-da, insonning cheksiz tafakkur va taxayyul olamini to'la-to'kis akslantirishga to'laqonli erisha olmaydi. Shu nuqtai nazardan, tilning taraqqiy etganlik darajasi unda tafakkurga xos tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning yetarlicha ekanligi bilan tavsiflanishi kerak. Biroq shu narsa aniqki, tafakkur tildan bir qadam oldinda taraqqiy etadi va shu sabab ham tilda uzluksiz ravishda leksik bo'shliqlar paydo bo'lib turadi. Bu leksik bo'shliqlarning to'ldirilishi ham

jarayonni to'xtatmaydi: tafakkurda yana yangi-yangi tushunchalar paydo bo'laveradi.

Tilda leksik bo'shliqlarning muvaqqat yashab turishi va tezda to'ldirilmasligi (tushunchaning nomlanmasligi) til birliklarining katta informativ imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Tafakkurda shakllanadigan har qanday yangi tushunchani tilda mavjud so'zlar bilan yetarlicha izohlash va sharhlash mumkin. Bu esa mazkur tushunchani so'zlovchi (adresat) tomonidan tinglovchi (adresant)ga tushuntirishda yetarlicha imkoniyat beradi. Tadrijiy taraqqiyot davomida tilning bu xususiyati yanada rivojlanib boradi.

Tilda leksik birliklarning miqdori kishilik jamiyatining va til sohiblarining tafakkur darajasi, ilm-fanning rivojlanganlik miqyosi va ongda ularning aks etish xususiyatlariga mutanosib ravishda ko'payib boradi. Til egalarining muayyan nutqiy ehtiyojlari natijasida shakllanadigan lisoniy birliklar garchi uzluksiz paydo bo'lib tursa-da, ularning barchasi til leksik fondida barqaror o'rin tutmaydi. Millatning odil lisoniy tanlovi asosida ularning eng muhim va zarurlari til leksikasining asosi sifatida nisbatan turg'un va yashovchan xususiyatlarga ega bo'ladi. Aslida, adabiy til deb ataluvchi tilning me'yoriy va ommabop shakli til sohibi bo'lgan jamiyatning oqil lisoniy idroki mahsulidir.

Til leksik tizimining boshqa sathlarga nisbatan juda faol va o'zgaruvchan ekanligi ko'pgina adabiyotlarda qayd etilgan. Bu o'zgarish, asosan, lisoniy, nutqiy ehtiyojlar sabab yuzaga keladi. Qayd etish kerakki, til va tafakkurning izchil taraqqiyotida dastlab tushunchaning paydo bo'lishi va uni nomlashga ehtiyoj tug'ilishi obyektiv haqiqatdir. Shu o'rinda lisoniy-nutqiy ehtiyojni tavsiflash zarurati paydo bo'ladi. Muayyan tushuncha yoki «predmetni bilish jarayoni uning nominatsiyasi bilan bog'liq» (13, 107). Borliqda paydo bo'ladigan har bir predmet, tushuncha, avvalo, ongda akslanar ekan, albatta, unga munosib lisoniy ifoda topish, nomlash, izohlash, tavsiflash, tushuntirish ehtiyoji shakllanadi: «insondagi bilim doirasining muttasil ravishda kengayib turishi tilda bu jarayonlarning doimo yangi atama (nom)lar bilan ifodalanib turishini talab qiladi» (21, 19). Bunday vaziyatda inson yangi tushunchalarni atash uchun odatda ikki usuldan foydalanadi: 1) yangi tushunchaga yangi nom (so'z) berish; 2) yangi tushunchani unga o'xshash tushuncha nomi bilan metaforik nomlash. Aksar hollarda ikkinchi usul faol qo'llanadi. Chunki yangi so'z jamiyat a'zolari tomonidan osonlikcha tushunilmaydi (14, 120).

Tilda har bir so'z muayyan tushunchani nomlash ehtiyojidan yuzaga keladi. Bir-biriga ma'nodosh, hatto dublet atamalar ham o'zi ifodalayotgan tushunchani nomlashda muayyan tafovutlarga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, tildagi har bir so'zning o'z lisoniy qiymati va ahamiyati bor. Lekin til egasi (iste'molchisi) uni o'rganish va undan foydalanish jarayonida so'zlarni bir-biri bilan solishtirish, qiyoslash va faqat eng maqbul hamda ommaboplarini o'z lisoniy bazasida saqlash (yodda tutish) imkoniyatiga ega bo'lgani uchun ham tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlarni o'rganishga intilmaydi.

Tildagi leksik bo'shliqning aniqlanishi hamda to'ldirilishida tilning yashash va rivojlanish shakli — nutq jarayoni katta ahamiyatga ega. Zero, har qanday til birligi nutq jarayonida shakllanadi va barqarorlashadi. Umuman, nutq til egalarining eng faol va zaruriy muloqot jarayoni sifatida til leksikasidagi bor imkoniyatlarni ro'y-rost ko'rsatib turadi. Shuningdek, til leksikasidagi imkonsizlik, chegaralanganlik xususiyatlari ham aynan nutq jarayonida ko'proq seziladi va kuzatiladi.

Xulosa. Til egasi muayyan sheva vakili sifatida nutq jarayonida yuzaga keladigan leksik bo'shliqlarni turli yo'llar bilan bartaraf etishga va o'z nutqini imkon qadar to'kislashirishga intiladi. Ayni shu ehtiyoj sabab u nutqda kuzatiladigan leksik bo'shliqlarni o'z individual lisoniy bazasidagi so'zlar, ayniqsa, o'z shevasiga xos so'zlar, o'xshatish va metaforalar bilan to'ldirishga majbur bo'ladi. Turli nutq shakllarida uchraydigan bu kabi holatlar joriy nutq vaziyatida adresat va adresantning kommunikativ maqsadi ro'yobi uchun xizmat qiladi. Nutq jarayonida muayyan tushunchaga munosib nom izlanar ekan, uni nomlovchi eng maqbul so'z sifatida nutq jarayonida ishtirok etayotgan kishilar uchun tanish bo'lgan so'z tanlanadi. Muloqotning, odatda, bir-biriga yaqin yoki bir hududda yashovchi kishilar tomonidan amalga oshirilishi joriy nutqda shu hudud shevasidagi so'zlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday vaziyatda adabiy til normalarini yaxshigina anglagan kishi ham shevaga xos lisoniy imkoniyatlardan o'rinli foydalanishga moyil bo'ladi. Bu jihat ham nutq jarayonining til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirilishida katta imkoniyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Leksik sathdagi bo'shliqlarni o'zga tilga xos so'zlar bilan to'ldirish u qadar o'zini oqlamaydi. Aslida bu holat muayyan til leksikasining sofligi uchun jiddiy xavfdir. Tarjima jarayonida aniqlanadigan leksik bo'shliqlarni xorijiy tilga xos so'z bilan to'ldirish kabilar esa til rivoji uchun salbiy holat sifatida baholanishi kerak. Albatta, barcha tillarga kirib borayotgan internatsional so'zlarga ortiqcha g'ashlik bilan qarab bo'lmaydi, biroq bu borada ham muayyan me'yorga amal qilish zarar qilmaydi.

Til leksikasidagi mavjud leksik bo'shliqlarni to'ldirishni maqsad qilgan har qanday ziyoli, birinchi navbatda, mazkur leksik bo'shliqni to'ldirish imkoniyatiga ega bo'lgan so'zni tilning ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda bartaraf etishga intiladi. Ayni shu jihatdan ular, odatda, sheva so'zlaridan yoki so'z yasash tizimidan foydalanadi. Professor N. Mahmudov ta'kidlaganidek, «xalq shevalaridan, ayni paytda o'zbek tilining o'z xolis yasalish imkonlaridan foydalanib ish ko'rilsa, tilimizning tabiiy takomilini ta'minlamoq mumkin bo'ladi» (14, 77).

Hozirgi kunda leksik bo'shliqni o'rganish faqat tildagi yetishmovchiliklarni, kamchiliklarni aniqlashdangina iborat emas. Til leksikasining tizimli to'ldirilishi, boyitilishi uchun ham mazkur lingvistik hodisani chuqurroq tadqiq etish lozim. Tadqiqotchilar o'z ona tillarini o'zga til bilan qiyoslab, leksik sathdagi bo'shliqlarni aniqlashga va ularni bartaraf etishga intilmoqda, shuningdek, tafakkur va tasavvur bilan bog'liq, ongda shakllanadigan yangi tushunchalarning paydo bo'lishini hamda ularning nomlanish jarayonlarini ham obyektiv o'rganishga harakat qilmoqdalar. O'zbek tilshunosligida ham bu boradagi ishlarni jonlantirish, pirovardida adabiy til leksikasidagi leksik bo'shliqlarni aniqlash hamda to'ldirish til taraqqiyotini, sofligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan muayyan dolzarblik kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акай О. М. Онтологические и гносеологические особенности межъязыковых и внутриязыковых лакун // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Лингвистика. — 2019. — Т. 16. № 3. — С. 5–10.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III жилд (Э. Фозилов таҳрири остида). — Т.: “Фан” нашриёти. 1984. — 485 б.
3. Билиш фалсафаси (тузувчи ва таржимон Қ. Назаров). — Т.: “Университет” нашриёти. 2005. — 134 б.

4. Бозоров О., Раҳимова М. Сўзнинг мазмун томони ва унинг белгиллиги // Ўзбек тили ва адабиёти. — 2020. — №3. — Б. 94.
5. Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. — Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. — 314 с.
6. Гумбольдт Вилгельм фон. Избранные труды по языкознанию. — М.: Прогресс, 1984. — 159 с.
7. Голубева Н.А., Суздальцева А. А. Принципы выявления концептуальной лакунарности // Проблемы романо-германской филологии, педагогики и методики преподавания иностранных языков. — 2017. — №13. — С. 19–24.
8. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. — М., 1985. — 304 с.
9. Дегтерева А. Формы проявления семасиологических законов // Законы семантического развития в языке. — М., 1961. — С. 3–22.
10. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари (тасниф, текстлар ва луғат). — Т.: Фан, 1969. — 157 б.
11. Ладисова О.В. Лексическая лакунарность диалекта (на материале словаря современного русского народного говора д. Деулино): Автореф. дисс... канд. филол. наук. — Красноярск, 2000. — 26 с.
12. Ларина Т.В., Озюменко В.И. Лакуны и безэквивалентная лексика как фиксаторы специфики языка и культуры // Вестник РУДН, Серия: Русский и иностранные языки и методика их преподавания. — 2013. — № 4. — С. 93–100.
13. Махмараимова Ш. Ўзбек тилида метафоранинг номинатив функцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. — 2019. — №3. — Б. 107.
14. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. — Т.: Mumtoz soʻz, 2017. — 178 б.
15. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. — Т.: Mumtoz soʻz, 2010. — 26 б.
16. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1995. — 113 б.
17. Рябов В. Н. Русские интраязыковые лакуны: формально-семантический аспект: Дис. ... д-ра филол. наук. — Краснодар, 1997. — 363 с.
18. Фердинанд де Соссюр. Умумий тилшунослик курси (Француз тилидан И. Мирзаев таржимаси). — Т.: Navoiy universiteti, 2019. — 134 б.
19. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантик (тузатиш ва тўлдирилган иккинчи нашри). — Т.: Ўқитувчи, 1993. — 241 б.
20. Холмурадова Ж. Сўзда номинатив маънонинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. — 2019. — №3. — Б.118.
21. Худойбердиева Л. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг даражаланиши: Филол. фанлари номзоди... дис. — Андижон, 2003. — 47 б.
22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. (5 жилдлик. I жилд. – 680 б.; II жилд. – 672 б.; III жилд. – 688 б.; IV жилд. – 608 б.; V жилд. – 592 б.)

References

1. Akai O. M. *Vestnik Yuzhno-Ural'skogo gosudarstvennogo universiteta*, Seriya: Lingvistika, 2019, No. 3, pp. 5–10.
2. *Alisher Navoi's asarlari tilining izohli lugati. III zild* (Annotated dictionary of the language of Alisher Navoi's works. Volume III), Tashkent: Fan, 1984, 485 p.
3. *Bilish falsafasi (tuzuvchi va tarzhimon K. Nazarov)* (Philosophy of knowledge (compiler and translator K. Nazarov)), Tashkent: Universitet, 2005, 134 p.
4. Bozorov O., Rahimova M. *Uzbek tili va adabiyati*, 2020, No. 3, p. 94.
5. Bykova G.V. *Lakunarnost' kak kategoriya leksicheskoi sistemologii* (Lacunarity as a category of lexical systemology), Blagoveshchensk: BGPU, 2003, 314 p.
6. Vilgel'm fon Gumbol'dt. *Izbrannye trudy po yazykoznaniiyu* (Selected works on linguistics), Moscow: Progress, 1984, 159 p.
7. Golubeva N.A., Suzdal'tseva A. A. *Problemy romano-germanskoj filologii, pedagogiki i metodiki prepodavaniya inostrannykh yazykov*, 2017, No. 13, pp. 19–24.
8. Gumbol'dt V. *Yazyk i filosofiya kul'tury* (Language and philosophy of culture), Moscow, 1985, 304 p.

9. Degtereva A. *Formy proyavleniya semasiologicheskikh zakonov // "Zakony semanticheskogo razvitiya v yazyke"* (Forms of manifestation of semasiological laws // "Laws of semantic development in language"), Moscow, 1961, pp. 3–22.
10. Zhuraev B. *Yukori Kashkadare uzbek shevalari (tasnif, tekstar va lugat)* (Higher Kashkadarya Uzbek dialects (classification, texts and dictionary)), Tashkent: Fan, 1969, 157 p.
11. Ladisova O.V. *Leksicheskaya lakunarnost' dialekta (na materiale slovaryakh sovremennogo russkogo narodnogo govora d. Deulino)* (Lexical lacunarity of dialect (based on the dictionary of modern Russian vernacular D. Deulino)): Extended abstract of candidate's thesis, Krasnoyarsk, 2000, 26 p.
12. Larina T.V., Ozyumenko V.I. *Vestnik RUDN, Seriya: Russkii i inostrannye yazyki i metodika ikh prepodavaniya*, 2013, No. 4, pp. 93–100.
13. Makhmaraimova Sh. *Uzbek tili va adabiet*, 2019, No. 3, p. 107.
14. Mahmudov N. *Til tilsimi tadkiki* (Research of language), Tashkent: Mumtoz so'z, 2017, 178 p.
15. Mirtozhiev M. *Uzbek tili semasiologiyasi* (Semasiology of Uzbek language), Tashkent: Mumtoz so'z, 2010, 26 p.
16. Nematov H., Rasulov R. *Uzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari* (Fundamentals of the Uzbek language system lexicology), Tashkent: Ukituvchi, 1995, 113 p.
17. Ryabov V. N. *Russkie intrazykovye lakuny: formal'no-semanticheskii aspekt* (Russian intra-linguistic lacunae: formal and semantic aspect): Doctor's thesis, Krasnodar, 1997, 363 p.
18. Ferdinand de Sossyur. *Umumii tilshunoslik kursi (Fransuz tilidan I. Mirzaev tarzhimasi)* (General Linguistics Course (translated from French by I. Mirzayev)), Tashkent: Navoiy universiteti, 2019, 134 p.
19. Khairullaev M., Hakberdiev M. *Mantik (tuzatilgan va tuldirilgan ikkinchi nashri)* (Logic (revised and supplemented second edition)), Tashkent: Ukituvchi, 1993, 241 p.
20. Kholmuradova Zh. *Uzbek tili va adabiet*, 2019, No. 3, p.118.
21. Khudoiberdieva L. *Uzbek tilida nominativ birliklarning darazhalanishi* (Ranking of nominative units in the Uzbek language:), Extended abstract of candidate's thesis, Andizhon, 2003, 47 p.
22. *Uzbek tilining izohli lugati* (Explanatory Dictionary of the Uzbek language), Tashkent: Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020 (5 vols. Volume I. – 680 p. ; Volume II. – 672 p. ; Volume III. – 688 p. ; Volume IV. – 608 p. ; Volume V. – 592 p.).